

kichiklarga izzat ko'rsatish, mehmondo'stlik, yordamga muhtojlarga shafqatli bo'lish, hayo, ibo va mehr-oqibat, ahli ayolini oilasini asrash, maishiy turmushda poklikni yuksak qadrlash singari an'ana va qadriyatları ham hayotning uzoq sinovlaridan o'tgan o'lmas ma'naviy merosimiz sanaladi.

Darhaqiqat, bugungi kunda ma'naviy-ma'rifiy faoliyat fuqarolik jamiyatini qurishda davlat siyosatining ustuvor yo'naliishga ega ekanligi hech birimizga sir emas. Qadriyatlarni tiklash, ularni ilm-fan va taraqqiyot yutuqlari bilan boyitib borish, milliy o'zlikni anglash, milliy istiqlol g'oyasining tamoyillarini talabalar qalbi va ongiga singdirish, muqaddas dinimiz va tariximizga sadoqatli bo'lish ta'lim va ma'naviyat sohasidagi asosiy vazifalardan hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Ashurov M.O. O'zbek xalqi tarbiya tizimi – Samarqand Ziyokor, 2003 y., 6-son, 16-24 b.
2. Yo'ldosheva Saodat Xalq urf – odatlar va an'analari. – Toshkent ijod dunyosi nashriyot uyi. 2003 y. 3-22 b.
3. Musurmonova O. Hayot va turmush dasturi. – T.: O'qituvchi, 1993
4. Ochil Safo Mustaqillik ma'naviyati va tarbiya asoslari – T.; O'qituvchi, 1997 y. 3-bet.
5. Tulenov J. Qadriyatlar falsafasi – T.; O'zbekiston 2010 y. 5 – 108b.
6. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. Tuzuvchi – mualliflar K.Hoshimov, S.Ochil – T.; O'qituvchi, 1995 y. 164b.
7. Quronov M. Maktab ma'naviyati va milliy tarbiya – T.; Fan. 2016 y. 118b.

### **TARBIYALANUVCHI GURUHLARDA IJOBIY XISLATLAR VA FAZILATLARNI SHAKLLANTIRISHDA RIVOYATLARNING O'RNI Shomuratova Nozima Baxriddin qizi Navoiy innovatsiyalar universiteti o'qituvchisi**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada maktabgacha ta'limda 6-7 yoshli bolalarni axloqiy tarbiyalashda rivoyatlarning o'rni va uning ahamiyati haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Rivoyat, maktabgacha ta'lim, tarbiyalanuvchi guruh, bola, jamiyat, axloqiy tarbiya, "Ilk qadam" davlat dasturi, badiiy adabiyot

### **РОЛЬ НARRАТИВОВ В ФОРМИРОВАНИИ ПОЛОЖИТЕЛЬНЫХ ЧЕРТ И КАЧЕСТВ В УЧЕБНЫХ ГРУППАХ**

**Аннотация.** В данной статье рассматривается роль нарративов и их значение в нравственном воспитании детей 6-7 лет в дошкольном образовании.

**Ключевые слова:** Повествование, дошкольное образование, образовательная группа, ребенок, общество, нравственное воспитание, государственная программа «Первый шаг», художественная литература

## THE ROLE OF NARRATIVES IN THE FORMATION OF POSITIVE TRAITS AND QUALITIES IN EDUCATIONAL GROUPS

**Annotation.** This article discusses the role of narratives and their importance in moral education of 6-7-year-old children in preschool education.

**Keywords:** Narrative, preschool education, educational group, child, society, moral education, state program "First Step", fiction

Hozirgi biz yashab kelayotgan davrda rivojlanish jadal sur'atlarda o'sib bormoqda. Bu rivojlanishlarni turli talqinlarda atash mumkin. Ba'zilar zamon shiddati, jadal yuksalgan taraqqiyot, texnologiyalar, gajitlar davri deb atashsa: yana ba'zilar innovatsiyalar davri deyishadi. Darhaqiqat shiddat bilan o'sib borayotgan bu davrda insolarning ma'naviy jihatdan tarbiyasiga ham alohida e'tibor qaratish zarurdir. Bugungi kunda davlatning muhim toifasi, kelajagi hisoblangan yoshlarni ma'naviy jihatdan barkamol, yetuk qilib tarbiyalashda yurtimizda samarali ishlar olib borilmoqda. Milliy urf-odat, an'analarga tayangan holda, yoshlarda vatanparvarlik ruhini tarbiyalash, ularning ongu-shuurida insonparvarlik, ma'rifatparvalik g'oyalari singdirib borilmoqda. Buning samarasi asta sekin namoyon bo'lmoqda. Shu o'rinda Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev "Ammo holisona tan olib aytadigan bo'lsak, bugungi kunda butun dunyoda aholining, birinchi navbatda, yoshlarning ongi va qalbini egallash uchun qanday keskin kurash borayotganini, diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, "ommaviy madaniyat" kabi tahdidlar kuchayayotganini hisobga oladigan bo'lsak, farzandlarimiz tarbiyasi, ma'naviy-ma'rifiy sohadagi ishlarimizni bir zum ham susaytirmasdan, aksincha, ularni yangi bosqichga ko'tarishimiz zarur" ligini ta'kidlaydi.

Har qanday davlat o'zining sog'lom jamiyatini qurishga urinar ekan - bunda xalqning ayniqligi, o'sib kelayotgan yosh avlodning tafakkurini ijobiy tomonga o'zgartirishi, ularning ongu-shurida bunyodkorlik, vatanparvarlik va insonparvarlik g'oyalalarini rivojlantirish, ijobiy xislatlar va fazilatlarni shakllantirish asosiy omillardan biri bo'lib hisoblanadi. Bu jarayonlarda jamiyatda bolalar tarbiyasiga alohida e'tibor qaratib sog'lom tafakkurni shakllantirish alohida ahamiyatga egadir.

"Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni hamda "Ilk qadam" davlat o'quv dasturini ta'lim-tarbiya jarayonga tadbiq etish, dasturni to'laqonli ishlab ketishida metodik ta'minot va metodik yordamning o'rni belgilab olindi. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi asosida barcha yosh guruuhlarida mavjud markazlar hamda umumiy guruhlarda ishlashni tashkil etishda tarbiyachining o'rniga alohida e'tibor qaratildi. Ta'lim tashkilotining ishchi o'quv dasturi tashkilot pedagoglari tomonidan ota-onalarni jalgan etgan holda tuziladigan va amaldagi qonunchilik tartibida tasdiqlanadigan qilib belgilandi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi asosida 5 ta faoliyik markazlarida faoliyat yuritadilar, ulardan "Til va nutq markazi"

orqali bolalarda ijobjiy xislatlar va fazilatlarni shakllantirishda rivoyatlardan foydalanib ta'lim-tarbiya berishimiz mumkin.

Jahonda globallashuv sharoitida umuminsoniy va milliy qadriyatlarni asrab avaylash, saqlash va ularni kelgusi avlodlarga yetqazish, xususan mакtabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni axloqiy tarbiyalashda rivoyatlar vositasida ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning istiqbolli yo'naliishlari ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etilmoqda.

Markazlarda faoliyat yuritishda bevosita badiiy adabiyotga ya'ni rivoyatlarga murojaat qilish o'z samarasini beradi. "Badiiy adabiyot mashg'ulotlaridan ko'zda tutiladigan asosiy maqsad - kichkintoylar qalbida tarixiy shaxslarning ibratli hayotiga nisbatan xavas uyg'otish bilan birga ularda ijobjiy xislatlarni hamda axloqiy tarbiyasini kamol toptirishimiz lozim. Bunday mashg'ulotlar bolalarda vatanparvarlik, insonparvarlik tuyg'ularini shakllantiradi, ularning ma'naviy-axloqiy tarbiyalanishiga hissa qo'shamdi. Z.Ibroximovaning "Maktabgacha ta'lim muassasalarida badiiy adabiyot" mashg'ulotlar to'plamida yuzga yaqin mashg'ulotlar jamlangan. Mashg'ulotlar rivoyatlarga asoslanib, jarayonda turli jihozlardan foydalanilgan, bolalarning o'zлari ham faol ishtirok etishi ta'kidlangan.

Tayyorlov guruuhlarida ya'ni 6-7 yoshli bolalar badiiy adabiyotga oshno bo'ladilar. Ular xalq ertaklari, she'r, hikoyalar, rivoyatlar eshitishni yaxshi ko'radilar. Bolalar adabiyoti, avvalo o'zining qiziqarli mazmuni, badiiy obrazlarining go'zalligi, tilning ifodaliligi, she'riy so'zlarning musiqaviyligi bilan bolalarni qiziqtira oladi va ularga quvonch baxsh etadi. Rivoyat (arab. hikoya qilmoq) — voqeа va hodisalarni, inson faoliyatini ba'zan uydirmalar vositasida, ba'zan real tasvirlovchi og'zaki hikoya; folklor janri hisoblanadi. Odatda, oddiy bir hikoyachi bayonidan boshlanib, og'izdan og'izga o'tish jarayonida erkin talqin qilinadi. Rivoyat asosida voqelik va tarixiy shaxs bilan bog'liq hodisalar yotadi. G'oyaviy mazmuniga ko'ra, tarixiy hamda toponim rivoyatlarga bo'linadi. Tarixiy rivoyatlarda biror shaxs faoliyati va xalq qahramonlari bilan bog'liq hodisalar hikoya qilinadi, axloq va odobning ideal me'yordari tashviq etilib, muayyan faktlar haqida axborot beriladi. Bunday rivoyalar Navoiy, Ulug'bek, Ibn Sino, Beruniy, Mashrab, Amir Temur, Sulton Mahmud va boshqa hayoti bilan bog'liq voqeа va hodisalar asosida ham yaratilgan. Toponim rivoyatlarda shahar, qishloq, qo'rg'on, saroy, maqbaralar nomi hamda ularning yuzaga kelish sabablari bilan bog'liq voqealar hikoya qilinadi. Xotimasida odatda, hikoyadan maqsad ta'kidlanadi va muayyan fakt izohlanadi (Mas, "To'rabe xonim maqbarasi", "Anda jon qildi", "Odinajonim", "Qo'ng'irot" va boshqalar). Rivoyatlar bizgacha ko'proq og'zaki, qisman yozma shaklda yetib kelgan. Vosifiynij "Badoye' ul vaqoye", Xondamirning "Makorim ul axloq" va boshqalar. O'zbekistonda juda ko'p rivoyatlar yozib olingan va ular xalq tarixi hamda madaniy estetik qarashlarini o'rganishda muhim manbadir.

"Ilk qadam" davlat dasturida 5 ta markaz faoliyat yuritadi, ulardan "Til va nutq markazi" dagi oylik mavzular rivoyatlar asosida bolalarda axloqiy xislatlarni shakllantirishga yordam beradi. Masalan: fevral oyining 3-haftasi

“O‘zbekistonning buyuk siymolari” mavzusiga doir quyidagicha rivoyat keltirilishi mumkin:

Rivoyat qilishlaricha Alisher Navoiy hazratlari Samarcanda o‘qib yurgan kezlarida Buxoroyi sharifni ziyorat qilishni orzu qilibdilar. Samarcanda to‘xtab o‘tadigan karvonlarga qo‘silib, bir guruh do‘stlari bilan Buxoroga yo‘l olibdilar. Karvon yo‘l yurib, yo‘l yursa ham mo‘l yurib, Karmanadan o‘tib "Malik rabot" karvonsaroyiga kelib to‘xtabdi. Yo‘lovchilar dam olib, tuyalar va otlarini sug‘oribdilar. Meshlarni to‘ldirib suv olibdilar. Karvonda ketayotgan Navoiy hazratlari yon-atrofidagi cho‘l-u sahrolarni kuzatib, o‘yga tolibdilar. Malik robot va Sardobani barpo etganlar ruhiga tilovat qilibdilar.

“Qani endi, mening Farhodlarim, Shirinlarim shu bepoyon sahrolarga kelib, shu joylarni obod qilsalar, suv chiqarib, bog‘-rog‘lar barpo qilsalar, imoratlar, yo‘llar, masjid madrasalar, shifoxonalar barpo etsalar, sahrolar o‘rnida go‘zal bir yurt bunyod bo‘lsa,” deb orzu qilgan ekanlar Alisher Navoiy. Oradan asrlar o‘tib, Xudoning marhamati va bobomizning iltijolari, xalqimizning mehnati evaziga tilovat o‘qilgan joylar bog‘-rog‘ga aylanib, янги барпо этилган шаҳар “Navoiy” deb shoir nomiga atalibdi.

Mazkur rivoyat orqali bolalarga ulug‘ mutafakkir, g‘azal mulkining sultonni Alisher Navoiy haqida qimmatli ma’lumotlar yetkaziladi. Qolaversa, tiynati toza, solih insonlarning chin dildan qilgan duolari ijobat bo‘lishi, ezgu tilaklar ro‘yobga chiqishi haqida bolalarga tushuntiriladi. Ayniqsa, Navoiy viloyati hududida yashaydigan bolalar o‘z yashab turgan makonining qadim tarixi haqida bilib oladilar, Ulug‘ alloma nomi bilan atalgan viloyatda yashayotganliklaridan g‘urur tuyadilar va kelgusida buyuk ajdodlarga munosib farzand bo‘lishga intiladilar.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, tarbiyalanuvchi guruhlarda ulug‘ insonlar va makonlar haqidagi purma’no rivoyatlar bolaning ma’nан yetuk, ruhan baquvvat va zakovatli bo‘lib yetishishlarida hamda ijobiy xislatlar va fazilatlarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi Toshkent-2019 Rasulov.Y, Nurmatova O Pedagogika fanidan o‘quv qo’llanma Toshkent -2014
2. Qodirova F.R., Toshpo‘latova Sh.Q., Kayumova N.M., Agzamova M.N. “Maktabgacha pedagogika” T.: Tafakkur, T- 2019. Darslik.
4. Sodiqova Sh.A. Maktabgacha pedagogika. T.: Tafakkur bo‘stoni. 2013 y. Darslik
1. S.B.Sanayeva, Sh.N.Haydarova “Maktabgacha ta’lim va tarbiyani tashkil etish”. Darslik. T-2023 yil
2. “Takomillashtirilgan Ilk qadam Davlat o‘quv Dasturi.T.: 2022.
3. Tillayev.B. Tarbiya majmua: o‘quv qo’llanma.T; O‘qituvchi. 2021.2022
4. Kubayeva M. B. IMPLEMENTATION OF VISUAL-DIDACTIC GAMES IN ECOLOGICAL EDUCATION OF STUDENTS OF PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS //CURRENT

- RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES. –2022. –T. 3. – No. 01. –C. 1-4.13.
5. Кубаева М. Visual technologies based on the principles of demonstration is the foundation for pre-schoolers“ education //in Library. –2022. –T. 22. – No. 2. –C. 189-200.
  6. Кубаева М. Ekologiktarbiya berishda vizual texnologiyalardan foydalanish //in Library. –2022. –T. 22. –No. 1. –C. 8-11.
  7. Кубаева М. Секреты пробуждения любви к природе //in Library. –2021. – T. 21. –No. 2. –C. 51-53.
  8. Kubaeva M. B. Q. THE USE OF VISUAL TECHNOLOGIES OF EDUCATION IN ECOLOGICAL EDUCATION OF PRESCHOOL CHILDREN AS A PEDAGOGICAL PROBLEM //CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS. – 2021. – T. 2. – №. 06. – C. 6-10.
  9. М Кубаева Maktabgacha yoshdagи bolalarga ekologik ta’lim-tarbiya berishda vizual texnologiyalarning o’rni // in Library 2021 (1), 102-105
  - 10.М Кубаева Важность экосистемного образования для дошкольников// in Library 2022 (4), 921-926

## **TA’LIM VA TARBIYA JARAYONIDA O’SMLRLARNING AXLOQ-IRODAVIY FAZILATLARINI SHAKLLANTIRISH.**

**Rahmatova Nasiba Sobirovna**  
**Navoiy innovatsiya universiteti “Ijtimoiy-gumanitar fanlar”kafedrasи**  
**Pedagogika va psixologiya ta’lim yo‘nalishi o‘qituvchisi**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada kishining o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlariga erishishida qiyinchiliklarni yengib o‘tishga qaratilgan faoliyati va xulq-atvorini ongli ravishda tashkil qilishi va o‘z-o‘zini boshqarishi, mustaqillik, qat’iyatlilik, tirishqoqlik kabi mavzular ochib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Ta’lim va tarbiya, aqliy va shaxsiy rivojlanish, axloqiy va irodaviy, tartib-intizom, qat’iyat.

## **ФОРМИРОВАНИЕ НРАВСТВЕННЫХ И ВОЛЕВЫХ КАЧЕСТВ ПОДРОСТКОВ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ И ВОСПИТАНИЯ.**

**Аннотация:** В данной статье раскрываются такие темы, как самоконтроль, самостоятельность, настойчивость, а также самоуправление своей деятельностью и поведением, направленное на преодоление трудностей в достижении своих целей.

**Ключевые слова:** Образование и тренировка, умственное и личностное развитие, мораль и воля, дисциплина, целеустремленность.